



POLAND



POLAND

**XALQ TABOBATIDA TURLI KASALLIKLARINI OLDINI OLISH VA
DAVOLASHDA SACHRATQI O'SIMLIGIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI****O.M.Umarova**

Farg'ona davlat universiteti I kurs doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12684187>

Aholi o'rtasidagi kasalliklarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, keyingi yillar davomida butun dunyoda yer sharida ekologik vaziyatni tobora yomonlashib borishi tufayli jigar kasalligi ancha ko'paygan. Jigar kasalliklari xilma-xil bo'lib, ular orasida jigar va o't yo'llarining yallig'lanishi (gepatit, xolesistit, xolangit) ko'proq uchraydi. Ushbu xastaliklar bilan kasallanishni oldini olish va bu haqda umumiy tushunchaga ega bo'lish uchun jigar va uning faoliyati haqida adabiyotlarda berilgan manbaalar [1] asosida ma'lumot berish zarur.

Ma'lumki, jigar odam va hayvon organizmida ancha muhim vazifani bajaradi. U birinchidan, deyarli hamma moddalar almashinuvida (oqsil, karbonat anhidrid, suv, eg' va hokazo) qatnashsa, ikkinchidan, ichakdan qonga so'rilgan turli zaharli kimyoviy moddalar, jumladan dori vositalarining ham kuchini kamaytirs (metabolizm, neytrallashtirish), uchinchidan, jigar hujayralaridan (gepatositlar) o't kislotalar va boshqalarni (safro) ishlab chiqaradi. Safro tarkibida o't kislotalardan tashqari xolesterin va pigment-bilirubin bo'lib, bir kecha-kunduzda 0,5-1 litr ishlab chiqariladi. U o't yo'llari orqali o't pufagiga yig'ilib, zarurat bo'lganda vaqti-vaqti bilan o'n ikki barmoq deb nomlangan ichakka tushib turadi. Bu fiziologik jarayon kislotali muhit bo'lgan ovqat massasining me'dadan o'n ikki barmoq ichakka o'tishiga bog'liqdir. Safroning asosiy vazifasi ovqat tarkibidagi yog'larni parchalaydi (emulgator sifatida), ularga nisbatan lipaza fermenti ta'sirini ta'minlaydi va yog' kislotalarning qonga so'rilishida qatnashadi. Bundan tashqari, jigarda turli biokimyoviy va kimyoviy jarayonlar sodir bo'lib turadi, organizm uchun zarur moddalar ishlab chiqariladi.

Demak, jigar faoliyati ancha murakkab bo'lib, u organizmning bir me'yorda ishlashi uchun o'ta zarur a'zo hisoblanadi. Olimlar uni «organizmning kimyoviy laboratoriyasi» deb bejiz ta'riflamaganlar. Balki shu boisdandir, jigar tashqi ta'sirlarga sezgir bo'ladi. Jigar kasalliklariga sababchi omillar orasida qishloq xo'jaligida nazoratsiz ishlatiladigan kimyoviy moddalar (gerbisidlar, pestisidlar va boshqalar) ning ozuqa zanjiri orqali organizmga tushishi, spirtli ichimliklar, yog'li taomlarni ko'p iste'mol qilish asosiy o'rinni egallaydi.



POLAND



POLAND

Bulardan tashqari, qator mikroorganizmlar, parazitlar, aynan viruslar borki, ular jigar hujayralari va o't yo'llarini yallig'lantiradi va har xil kasalliklarga duchor qiladi (toksik gepatit, virusli gepatit - sariq kasalligi, xolangit va hokazo). Ushbu kasalliklarda jigarning butun faoliyati, jumladan safro ishlab chiqarish ham izdan chiqadi. O't pufagi, o't yo'llarining yallig'lanishi va buning natijasida ularda tosh hosil bo'lishi safroning ichakka tushishiga to'sqinlik qiladi. Natijada u yig'ilib, qonga so'riladi va organizmni zaharlab, og'ir musibatlariga olib keladi.

Tibbiyot amaliyotida ishlatiladigan dorilarning ko'pchiligi sintez yo'li bilan yoki hayvonlar safrosidan tayyorlangan preparatlardir. Mazkur dori vositalari umumiy jigar faoliyatini yaxshilaydi (gepatoprotektorlar), o't ishlab chiqarishini kuchaytiradi, yallig'lanish sababchisiga (mikroblarga, viruslarga) qarshi ta'sir ko'rsatadi va safro haydaydi. Shular bilan bir qatorda, jigar va o't yo'llari kasalliklarida, jumladan yallig'lanishda keng ko'lamda ishlatiladigan, mahalliy o'simliklardan tayyorlanadigan dori turlari bor. Shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dorilar jigar hujayralarini qattiq ta'sirlamaydi, ko'ngilsiz asoratlarga olib kelmaydi. O'simliklardan tayyorlangan dori turlari organizm uchun zararsiz, shu sababli ularni surunkali jigar kasalliklarida uzoq vaqt ishlatish mumkin.

Shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dorilar tarkibida turli kimyoviy moddalar borligi sababli davo ta'siri har tomonlamadir. Masalan, bir dori turida ham yallig'lanishga qarshi, ham o't ishlab chiqarishni zo'raytiradigan, ham o't haydaydigan ta'sir mujassam bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda jigar va o't yo'llari xastaligida ishlatiladigan mavjud o't haydaydigan preparatlar ishlatilishi va ta'siri bo'yicha ikki guruhdan tashkil topgan: o't kislota ishlab chiqarilishini oshiradigan va safroni ichakka tushiradigan dorilar.

Birinchi guruh dorilari bevosita jigar hujayralarini ta'sirlab, o't ishlab chiqarishni kuchaytirsa, ikkinchi guruh dorilari o't yo'li sfinkterini bo'shashtirib, o'tning o'n ikki barmoq deb nomlangan ichakka tushishini ta'minlaydi.

Hozirgi paytda sintez yo'li bilan va chet davlatlardan olinadigan dori-darmonlarning o'rnini bosa oladigan shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dori turlaridan to'g'ri va o'rinli ishlatishni ilmiy asosga qo'yish uchun sachratqi *Chicorim intybus L.* o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Biz o'rganayotgan tur *Cichorium intybus L.* - *sachratqi* (mahalliy nomlari-oddiy hindibo, ruscha nomi- Цикорий обыкновенный) ataladi. Deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida uchraydi. Mamlakatimizning Toshkent, Jizzax, Samarqand, Surhandaryo, Qashqadaryo viloyatlarida hamda Farg'ona vodiysi



POLAND



POLAND

hududlarida uchraydi. Asosan, sug'oriladigan ekinlar orasida (bedazorlarda juda ko'p) uchraydi. Shuningdek, tashlandiq yerlar, yo'l, dala, ariq yoqalari, bog'larda o'sadi. Bo'yi 30-130sm ga yetadigan ko'p yillik begona o't. Poyasi shoxlanadi, pastki qismi oq tukli. Barglari ketma-ket joylashgan. Gullari havorang, barg qo'ltiqlarida kalta gulbandda to'p-to'p bo'lib, poya uchida esa yakka savatchasimon to'pgulga yig'ilgan. Ildizi o'q ildiz, tuproqqa 1,5 metrgacha chuqurlikda kirib boradi. Yevropa mamlakatlarida dorivor ekin sifatida ekiladi. Mart-may oylarida o'sa boshlaydi va iyun-oktabrgacha gullaydi va mevalaydi. Urug'idan ko'payadi.

Tibbiyotda sachratqining er ustki qismi va ildizidan dorivor vosita sifatida foydalaniladi. Yer ustki qismi o'simlik gullagan vaqtda o'rib olinadi va soya erda quritiladi. Ildizini kech kuzda yoki bahorda kovlab olib, yuviladi va mayda bo'laklarga qirqib, quyoshda quritiladi. Sachratqi tarkibida achchiq glikozidlar va boshqa moddalar bor, o'simlik sut shiraga boy.

Xalq tabobatida sachratqi qadimdan turli kasalliklarga davo qilib kelinadi. Ibn Sino sachratqini jigar kasalliklarini davolashda, isitma, ich ketish, ko'ngil aynish, ko'z yallig'lanishi va boshqa kasalliklarda tavsiya qilgan.

Xalq tabobatida sachratqi er ustki qismi va ildizidan tayyorlangan damlama hamda qaynatma jigar va o't pufagi, taloq, buyrak, me'da va boshqa kasalliklarga davo qilinadi va siydik haydovchi, ishtaha ochuvchi va ovqat hazm bo'lishini yaxshilovchi dori sifatida qo'llaniladi. Yer ustki qismining damlamasi bilan oftob urgan bolalar cho'miltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.X.Xolmatov, Z.I.Zokirova. Turli kasalliklarda dorivor o'simlik yig'malaridan foydalanish. Toshkent, 1993 yil. Ibn Sino nashriëti. 28 bet.
2. K. Xojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamraeva, D.A. Imomova, A.N. Xujanov. "O'ZBEKISTON DORIVOR O'SIMLIKLAR ATLASI" (o'quv qo'llanma). SamDU tahririy- nashriyot 2021-yil. 52-56 b.
4. Nabiyeu M, Shifobaxsh giyoxlar, T., 1980;
5. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967
6. Karimov V. Shomahmudov A. "Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibbiyotda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar" Toshkent, "Ibn Sino" NMB, 1993-yil
7. Nabiyeu M. "Shifobaxsh ne'matlar" Toshkent. 1994-yil.
8. Xolmatov X.X. Qosimov A.I. "Dorivor o'simliklar" , "Ibn Sino" 1994-yil
9. <https://en.wikipedia.org/wiki/Cichorium>